

AKSIOLINGVISTIK BAHO TUSHUNCHASIGA OID ILMIY QARASHLAR TAHLILI

Saydaliyeva Muxlisaxon Baxtiyor qizi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi;

e-mail: saydalievamuxlisa@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadriyatlar tizimida asosiy tushunchalardan biri bo'lmish baho kategoriyasining voqelanishi yuzasidan tilshunoslarning mulohazalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *aksiolingvistika, qadriyat, baho, baholash, baholovchi hukm.*

Antropotsentrik tilshunoslik doirasida aksiologiya hamda tilshunoslik sohalari kesishmasi ham til tizimida qadriyatlar tadqiqiga yangicha qarashlar shakllanishiga sabab bo'ldi. Aksiolingvistika tildagi baho ifodalovchi birliklarni tahlil qilishga asoslanadi hamda qadriyatlar va baholashning til orqali ifodalanishini tadqiq etadi. Dunyo tilshunosligida qadriyatlar hamda ular bilan bog'liq jihatlar, xususan, ularning tabiati, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi aksiologik yo'nalish muhimlik kasb etib bormoqda. Aksiologiya falsafaning alohida bo'limi bo'lib, unda borliq tushunchasi ikki element – voqelik va qadriyatga ajaraladi. Aksiologik tilshunoslik ham antropotsentrik xarakterga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Borliqdagi narsa-buyum, voqea-hodisalar yolg'iz inson ongidagina qadriyat sifatida muhimlik kasb etadi.

Shu jihatdan, antropotsentrik yondashuv doirasida til birliklaridagi aksiologik bahoning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, uning dunyoqarash, ong bilan bog'liq jihatlarini aniqlash, aksiologik birliklarni mavzu jihatdan tasniflash, tahlil qilish, muhim jihatlarini belgilash, o'zbek tilining o'ziga xos lingvoaksiologik xususiyatlarini maxsus lingvistik birliklar tahlili asosida ochib berish, qadriyatlarining tizimli tavsif va tahlil qilish tilshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

Aksiologik baho tushunchasi dastavval falsafiy kategoriya sifatida shakllanib, keyinchalik aksiologiya sohasi uchun ham asosiy tushuncha sifatida kirib kelgan. Baho kategoriyasi aksiologiyaning qadriyat bilan teng darajali ahamiyatli bo'lgan tayanch kategoriyasi sanaladi. Baho kategoriya sifatida kishilarning borliqdagi hodisalarga munosabati o'laroq bevosita jarayonda yuzaga keladi. Baho shaxslarning intilishlarini ko'rsatadi, qabul qilolmaydigan inkorlari yoki betaraf (neytral) munosabatini aks ettiradi, subyektning ijtimoiy munosabatlar va madaniyat tizimidagi subyektning pozitsiyasini

ifodalaydi. Anglashiladiki, baho ham qadriyatning manbayi va o‘lchovi bo‘lgan insonning fikrlash jarayoni mahsuli va tanlovidir.

A.A.Ivinga ko‘ra, baho biror obyektning mutlaq yoki qiyosiy qiymatini belgilovchi fikrdir [ИВИН, 2008: 24-25]. Olim baho va tavsif tushunchalarini yonma-yon qo‘yadi hamda tavsiflardan farqli o‘laroq, baholar haqiqat yoki yolg‘on emas deb keltiradi: “Mantiq, argumentlar nazariyasi va falsafa nuqtayi nazaridan, avvalo, tilning ikki asosiy qo‘llanishi – tavsiflash va baholash o‘rtasidagi tafovut chegarasini aniqlab olish lozim bo‘ladi. Birinchi holatda mulohaza va voqelikni taqqoslashning boshlang‘ich nuqtasi real vaziyat bo‘ladi hamda “haqiqiy” va “yolg‘on” tushunchalari orqali xarakterlanadigan mulohaza uning tavsifi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi vaziyatda standart, istiqbol (perspektiva), reja sifatida namoyon bo‘ladigan mulohaza boshlang‘ich hisoblanadi. Vaziyatning ushbu mulohazaga muvofiqligi “yaxshi”, “farqsiz” va “yomon” (qiyosiy baholar holatida – “yaxshiroq”, “teng qiymatli”, “yomonroq”) tushunchalari bilan tavsiflanadi” [ИВИН, 2008: 24]. Olim so‘zlashuvda ham, ilmiy tilda ham tavsifning ham, bahoning ham ko‘plab turlari uchrashini ta’kidlaydi va bu hodisalar ikki qutb singari oraliqda ko‘plab tutash nuqtalar mavjudligini e’tirof etadi. A.A.Ivin baholovchi hukmni obyektning absolyut yoki qiyosiy qiymatini belgilovchi hukm sifatida baholaydi va shunga ko‘ra har qanday baholovchi hukmlar shu ikki turdan biriga mansub bo‘lishi aytiladi. Absolyut hukmlar “yaxshi”, “yomon”, “farqsiz” yoki ularning o‘rindoshlarini qo‘llash orqali ifodalansa, qiyosiy hukmlarda “yaxshiroq”, “yomonroq”, “teng qiymatli” singari terminlari qo‘llanishi ta’kidlanadi: *“Inson o‘z va‘dasining ustidan chiqishi yaxshi”, “Doimiy kech qolish yomon”, “Siz o‘z itingizni qanday nomlashingiz ahamiyatsiz”* (farqsiz ma’nosida) yoki *“Kech qolgan kelmagandan ko‘ra yaxshiroqdir”, “Kitob o‘qishga qiziqmaslik aslida jismoniy mehnatdan bo‘yin tovlashdan ko‘ra yomonroqdir”, “Bajarish imkonsiz bo‘lgan va‘dalarni berish umuman hech narsani va‘da qilmaslikka tengdir”* kabi [ИВИН, 2008: 87]. Shu bilan birga, “yaxshilik”, “yomonlik”, “ijobiy (pozitiv) qiymatli”, “salbiy (negativ) qiymatli”, “-dan ko‘ra ma’qulroq”, “bo‘lishi lozim” singari so‘z va birikmalarga ham baholovchi hukmni ifodalashda keng murojaat qilinadi deb ko‘rsatadi olim. A.A.Ivin baholovchi hukmning tarkibiy to‘rt qismi mavjudligini ko‘rsatadi, bular – baho subyekti, baholash predmeti, baho xususiyati, baholash asosi. Bunda baho subyekti – muayyan obyektga qiymat beruvchi shaxs (yoki kishilar guruhi), baholash predmeti – qiymat berilgan biror obyekt yoki qiymatlari taqqoslanayotgan obyektlar, baho xususiyati – bahoning absolyut yoki qiyosiy ekanligini hamda obyektning qanday baholanayotganining (ijobiy, salbiy va hokazo) ko‘rsatilishi, baholash asosi baholash nuqtayi nazaridan amalga oshiriladigan pozitsiyadir. Bu qismlarning barchasi ham baholovchi fikrda aniq ifodalanmaydi, lekin bu ularning

majburiy emasligini anglatmaydi. Ularning birortasisiz baho yo‘q va demak, uni qayd etuvchi baholovchi fikr ham mavjud emas.

Baho haqida tasavvur hosil qilishda S.F.Anisimovning quyidagi fikrlariga tayanish mumkin: “Qadriyatning ahamiyati (S.M.: kishilarning) ongda baho shaklida – tasavvurlar, tushunchalar, hukmlar tarzida aks etadi. Baho his-tuyg‘u, zavqlanish, nafratlanish va shu kabi emotsional reaksiyalar shaklida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Ongli baholash har doim baholovchi hukm (оценочное суждение) ko‘rinishida, nutqda esa “Bu odam chiroyli”, “Bu o‘simliklar foydali”, “Zo‘ravonlik – yovuzlik” kabi gaplar tarzida bo‘ladi. Baholovchi hukmning, masalan, bilish hukmlaridan ajratib turadigan asosiy farqi shundaki, unda predikat sifatida qadriyat tushunchasi ishtirok etadi.” [Анисимов, 2001: 85]. Masalan, nonga nisbatan ikki hukmni tahlil qilamiz. “Non – xamirdan tayyorlanadigan, tandir, o‘choq kabilarda pishiriladigan ozuqa mahsuloti” – bu bilish (kognitiv) hukm, ilmiy tavsif. “Non – aziz” – baholovchi hukm bo‘lib, ushbu holatda “aziz” predikati ijobiy ma‘noni ifodalovchi qadriyatli tushuncha hisoblanadi. Umuman, o‘zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillarining kundalik hayot tarzida, tirikchiligida nonning o‘rni va ahamiyati, unga nisbatan aziz ne‘mat sifatida qarashlarning shakllanishi xalqning og‘zaki ijodida, urf odatlari silsilasida u bilan bog‘liq ko‘plab til va madaniyat tadqiqi uchun obyekt bo‘lishga munosib manbalar soni sezilarli ortishiga sabab bo‘lgan: non sindirish (unashtiruv), *noni butun*, *non topmoq*; “*Non mo‘lligi – el to‘qligi*”, “*Mehnatli non – shakar, mehnatsiz non – zahar*”, “*Mehnatning noni – shirin*” va hokazo. Ushbu misollardan o‘zbeklarning nonga nisbatan qadriyatli munosabatini ko‘rish mumkin.

M.S.Andryuxina baholash sistemasi ikki bosqichda amalga oshishini ta’kidlaydi: “1) kishilarning kundalik tushunchalarni ifodalovchi kechinmalari orqali; 2) inson mavjudligining konseptual yadrosida shakllanuvchi anglashlar orqali” [Андрюхина, 2010: 54]. Olimning fikricha, obyektning aksiologik ahamiyati baho orqali aniqlanadi va u, tabiiyki, ijobiy, salbiy yoki betaraf (neytral) bo‘lishi mumkin. Qadriyatlar esa kategoriya sifatida ijtimoiy hayotdagi hodisalarning faqat ijobiy mazmundagilarini jamiyat mavjudligi va taraqqiyoti uchun o‘zida saqlab qoladi. Ta’kidlash kerakki, qadriyatlar voqelikdan tashqarida alohida dunyo sifatida mavjud bo‘lolmaydi.

Tilda qadriyatlar tizimini, xususan, baho kategoriyasini ham chuqur tadqiq qilgan tilshunos N.D.Arutyunova bahoning ijtimoiy xoslanganini alohida ta’kidlaydi va buni u yoki bu jamiyatda qabul qilingan me‘yorlar orqali sharhlaydi. Dunyoqarash va dunyoni anglash tarzi, ijtimoiy qiziqishlar va moda, obro‘-e’tibor, nufuz yoki yopiqlik kabilar bahoni shakllantiruvchi yoki o‘zgartiruvchilardan sanaladi. Olimaga ko‘ra, baho qo‘llangan vaqtidagina aktual hisoblanadi, ya’ni u joriy davr uchun amal qiladi [Арутюнова, 1988: 6]. Masalan, XX asr avvalidagi yaxshi avtomobil tushunchasi hozirgi kun talablariga mos

kelmaydi. Xuddi shu singari baho kim tomonidan aytilishi ham birlamchi darajali ahamiyatga ega. Bu holatni baholovchi hukmning uning muallifi bilan aloqasi ko‘p qirrali ekanligi bilan izohlash mumkin. Baho orqali so‘zlovchining shaxsiy fikri va didini ifodalaydi.

Aksiologivistikaga dahldor ilmiy ishlarda baho haqida so‘z ketsa, asosan, umumiy, xususiy, obyektiv va subyektiv, ijobiy va salbiy baho singari tasniflarga ajratish faol ekanligini kuzatamiz. Garchi bu tushunchalar bahoning asosiy faol tasnifiy guruhlar bo‘lsa-da, uning yana boshqa turlari soha doirasida farqlanishi kuzatiladi. N.D.Arutyunova ham bahoning ichki tasnifiga doir ba’zi olimlarning ishlariga murojaat qiladi. Xususan, olima etika va aksiologiyaga oid dastlabki ishlarda qadriyatlar tasnifi masalasi yuzaki berilgani, shunga asosan baho kategoriyasi tasnifi ham uzoq muddat olimlar diqqat markazida bo‘lmagani, dastlabki bahoga oid tahlillar orasida fon-Vriht tasnifi nisbatan batafsil taqsimot ekanligini ta’kidlaydi. U fon-Vrihtning aksiologik konsept birliklari tahlilida bahoning quyidagi turlari farqlanishini qayd etadi: “1) instrumental baho (yaxshi pichoq, yaxshi iskovuch); 2) texnik baho yoki ustalik, mahorat bahosi (yaxshi administrator, yomon mutaxassis); 3) ma’qullik bahosi (salomatlik uchun zararli); 4) utilitar baho (yaxshi maslahat, yomon reja, qulay sharoit); 5) tana a’zolari hamda psixik holatni ifodalovchi tibbiy baho (“хорошее сердце” – baquvvat yurak, yomon xotira); 6) gedonistik (mamnuniyat, lazzat) baho (yaxshi ta’m, yaxshi tushlik, yaxshi xazil)”⁵⁸. Fon-Vriht etik bahoni (ezgu niyat, yaxshi maqsad, nomaqbul xatti-harakat) gedonistik bahodan ajralib chiqqan ikkilamchi darajali baho turi sifatida keltirib o‘tadi.

Y.F.Serebrennikova “Aksiologik tahlilning asosiy tushunchalari” nomli maqolasida Yakovlevaning fikrlariga tayangan holda bahoning **umumiy, xususiy, jamoaviy** (obyektiv), **individual** (subyektiv), **nostandart, ratsional, funksional, emotsional, etalon, epistemik, aprior, aposterior, ochiq va yashirin** turlarini ajratib ko‘rsatadi⁵⁹.

Aksiologivistikada baho kategoriyasidagi bu kabi farqli tasniflar hodisaning mohiyatini ochishga jiddiy ta’sir o‘tkazadi va bu turlicha yondashuvlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan hodisa tadqiqida ushbu muammolarni inobatga olish obyektiv zarurat sanaladi.

⁵⁸ Bu haqda qarang: Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – С. 66.

⁵⁹ Серебренникова Е.Ф. Ключевые понятия аксиологического анализа / Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – С. 35-36.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022.
2. Андреева Е. А. Ценность и оценка в аксиологической фразеологии // <https://cyberleninka.ru/article/n/tsennost-i-otsenka-v-aksiologicheskoy-frazeologii/viewer>
3. Андрюхина М.С. «Аксиологическая оценка» как один из базовых концептов лингвокультурологии и теории культуры // Мир науки, культуры, образования. №3 (22). – Горно-Алтайск, 2010.
4. Анисимов С.Ф. Введение в аксиологию: учебное пособие. – М.: Современные тетради, 2001.
5. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. – 1985. – № 3. – С. 13-24.
6. Арутюнова, Н. Д. Типы языковых значений: оценка, событие, факт. – М.: Наука, 1988.
7. Ивин А.А. Логика: Учеб. пособие для студентов вузов. – М.: «Мир и Образование», 2008. – С. 24-25.
8. Қамбаров Ғ. С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.
9. Серебrenникова Е.Ф. Ключевые понятия аксиологического анализа / Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – 352 с.